“O’zbekiston va BMT: munosabatlar tarixi va barqaror rivojlanish omillari” nomli monografiya nashr etildi

O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan O’zR FA huzuridagi O’zbekistonning eng yangi tarixi markazda prof. M.A. Raximov va dotsent O.B. Abdimo’minovlar hammuallifligida “O’zbekiston va BMT: munosabatlar tarixi va barqaror rivojlanish omillari” nomli monografiya nashr etildi.

Kitobda O’zbekiston Respublikasining BMT tashkiloti bilan munosabatlarining tarixi, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqaror taraqqiyot, O’zbekiston milliy madaniyati va tarixiy merosni asrab-avaylash hamda xalqaro targ’ib qilish masalalari yuzasidan o’zaro hamkorlikning ustuvor yo’nalishlari keng manbalar asosida tahlil qilingan.